

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR HAQIDAGI
NAZARIY QARASHLAR

Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkur haqidagi qarashlar bayon etilgan. Fikriy qobiliyat murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda, izchil o'zaro bog'langan protsesslardan tashkil topadi: dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani echish yoki savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Tafakkurning izlanish bosqichlarida vujudga kelgan masalaning ifodalanishi har-xil darajada bo'lishi mumkin. Jumladan, voqelikning nimalari ma'lumki, nimalari yana noma'lum, ularni aniqlash, qay holatda va qaysi yo'l bilan yechilishi mumkin, uning turmush uchun qanday ahamiyati bor, singari jihatlarini aniqlashga to'g'ri keladi.*

Kalit so'zlar va iboralar: *Fikriy qobiliyat, pedagogik jarayon, fikrlash jarayoni, nazariy tafakkur, amaliy tafakkur, ko'rgazmali-harakat tafakkuri, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, mantiqiy tafakkur, reproduktiv, ijodiy tafakkur, konvergent fikrlash, divergent tafakkur, kreativlik, predikativ tafakkur.*

Mavzuning dolzarbligi. Tafakkur eng muhim bilish jarayonlaridan biridir, chunki biz fikr yordamida dunyoni taniymiz, voqelikni mulohaza qilamiz, tahlil qilamiz va umumlashtiramiz. Mahalliy va xorijiy psixologlarning fikriga ko'ra, fikrlash rivojlanish faoliyat jarayonida fikrlashning barcha turlari, shakllari va operatsiyalarini shakllantiradi va takomillashtiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, aqliy operatsiyalarni rivojlantirish ta'lim faoliyati uchun asos tayyorlashdir. Yosh o'quvchining rivojlanishi muhim tarkibiy qism hisoblanadi pedagogik jarayon. O'quvchilarni o'z qobiliyatlarini to'liq namoyish etish, tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlikni rivojlantirishga yordam berish zamonaviy maktabning asosiy dolzarb masalalardan biridir.

Kirish. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimiz tarixini xolisona o'rganishga katta imkoniyatlar yaratdi hamda milliy qadriyatlarimizni tiklash, hur fikrlashga sharoit tug'dirdi. Milliy mustaqillik yo'lidan dadil odimlab borilayotgan bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Milliy mustaqillik yo'lidan dadil odimlab borilayotgan bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa yoshlarni mustaqil o'qib-o'rganishlari, izlanishlari uchun barcha imkoniyatlar ochib berilmoqda. Shu bilan birga erkin fikrlashga, o'z-o'ziga nisbatan ishonch hissini ortishiga, mustahkamlanishiga bo'lgan talab kundan-kunga kuchaymoqda.

Hozirgi kunda fan va texnikaning taraqqiyoti, tadbirkorlar sinflarining ko'payishi, ekologik tahdidlar, jinoyatchilikning ko'payishi, diniy ekstremistlar oqimining ortishi mustaqil fikrlashni o'rganishga e'tibor qaratishimiz lozimligini ko'rsatadi. Chunki hozirgi vaqtda agar har bir qarorlar qabul qilishga ehtiyotlik bilan yondashmas ekanmiz, u bizga ma'lum muddatdan so'ng qimmatga tushishi mumkin.

Atoqli faylasuf Andre Jid ham «Erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo'lish uchun eng avvalo xatti-harakatlarimiz og'ir oqibatlarga olib kelmasligi kafolatiga ega bo'lmoq lozim» - degan edi.

Erkinlik, demokratiya o'ziga hammani bo'ysundirmasligi, hammani zabt etmasligi, balki u aql-idrokka bosh egishi, uning yo'rig'ida yurishi lozim. Ana shundan kelib chiqib, biz eng avvalo erkinlikni, demokratiyani tarbiyalashimiz kerak. Chunki, u sog'lom fikrlash va shakllangan aql -idrok ta'sirida bo'lsagina bizni tarbiyalashi, jamiyatni sog'lomlashtirishi mumkin. Aksincha emas.

Fikrni samimiy, ishonchli dalillar asosida tushuntira bilish tarbiya ta'sirchanligini oshiradi.

«Ijodiy tafakkur qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsa yaratish bilan bog'liq bo'lgan murakkab tafakkur protsessi»^[1].

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh yo'nalishini - davlat, jamiyat va oila oldidagi ma'suliyatini anglab etadigan, mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikr va mulohazalarini himoya qila oladigan shaxsni tarbiyalashga qaratilganligidir.

Hozirgi davrda kelajak egalari hisoblangan yoshlarni mustaqil fikrlay olishi, muammolarga har tomonlama yondashishi, o'z ustida ishlashi, ijodiy izlanishlar olib borishi muhim sanaladi.

Yoshlar tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, yoshlar ongida tevarak-atrofdagi voqelik bo'yicha mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, o'zaro bog'lanishi va munosabatlari yoshlarning fikrlashida to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o'zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchisi narsa va hodisalarning eng muhim alomat va xususiyatlarini mujassamlantirsa, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi mulohazalarini bildira olsa, buni keng tafakkur deyiladi.

Bu davr odatda kichik maktab davri yoki boshlang'ich maktab davriga to'g'ri keladi. Bu davrning ahamiyatli tomoni shundaki, bolaning bog'cha yoshi davrida to'plagan shaxsiy tajribasi, til boyligi, bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham intellektual, ham axloqan, ham ijtimoiy tomondan rivojlanib, ulg'aya boshlaydi. Jenevalik psixolog Jan Piajening (Piaje, 1952) ma'lumotlariga ko'ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burilishlar ro'y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo'lib, ma'lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko'proq o'zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo'lib boradi. Shuning uchun ham, ular ba'zan ota-onalari o'ylanib qoladigan mavhum matematik vazifalarni ham o'qituvchisi o'rgatganday tezda yechadigan bo'lib qoladi. Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi real tashqi olamni, uning qanday bor bo'lsa, shunday mavjud xususiyatlari doirasida idrok qilib, anglay boshlaydi.

Boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari - o'qishda, sportda, bolalar orasidagi nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb eta boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining qaysi jinsga taalluqli ekanligini teran anglab, maktabda "o'g'il bolalar" va "qiz

¹ Turg'unov Q «Ruscha-o'zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug'ati» Toshkent «O'qituvchi» 1975.

bolalar” guruhi shakllanadi. Har bir guruhning o'ziga yarasha qiziqishlari, mashg'ulotlari bo'lib, qizlarning davrasida bo'lish, masalan, o'g'il bola uchun hattoki, noqulay bo'lib qoladi.

Eng muhimi, aynan bu davr axloqiy normalarning ma'nosini tushunish, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ma'naviy tasavvurlarning shakllanishi uchun o'ta sezgir va qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham kattalarga hurmat, kichiklarni e'zozlash, ota-onaga ehtirom qursatish, Vatanni sevish, shaxsiy va ijtimoiy mulkka to'g'ri munosabat hislari tarbiyalanadi. Bola jazo bilan rag'batlantirish o'rtasidagi farqni ajrata boshlaydi va nima qilib bo'lsa ham jazolanishdan, ko'pchilikning nazaridan qolmaslikka harakat qiladi. Shu bois ham oilada va ta'lim maskanida bolaning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart-sharoit ayni bu davrda o'zining sezilarli samarasini beradi.

Munozara. Boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari – o'qishda, sportda, bolalar orasidagi nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb eta boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining qaysi jinsga taalluqli ekanligini teran anglab, maktabda “o'g'il bolalar” va “qiz bolalar” guruhi shakllanadi. Har bir guruhning o'ziga yarasha qiziqishlari, mashg'ulotlari bo'lib, qizlarning davrasida bo'lish, masalan, o'g'il bola uchun hattoki, noqulay bo'lib qoladi.

Hayot mobaynida o'qiganlarimiz, ma'lum shart-sharoitlarda konkret dalillar va nazariy bilimlar asosida mushohada qilgan bilim va g'oyalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni **nazariy tafakkurdir**. Undan farqli **amaliy tafakkur** bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lgan fikrlarimizga asoslanadigan tafakkurimizdir.

Ko'rgazmali-harakat tafakkuri amaliy tafakkurga mohiyatan yaqin bo'lib, uning xususiyati shundaki, u ham odamning real predmetlar xususiyatlarini o'rganish, ko'z bilan ko'rib, bevosita his qilish paytidagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur esa ko'rgan-kechirgan narsalar va hodisalarning konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir.

Mantiqiy tafakkur – bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya va tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo'lmagan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mulohazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'ladi.

Fikrlashimizning yana bir turi **reproduktiv** bo'lib, uning mohiyati – ko'rgan-bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi.

Undan farqli **produktiv yoki ijodiy tafakkur** – fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga bog'liq bo'lgan **konvergent** fikrlash masalaning yechimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, **divergent tafakkur** – fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi. Fikrning kashf etish, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati ba'zan uning **kreativlik** sifati bilan bog'lab tushuntiriladi. Kreativlik yoki tafakkurning kreativ turi – shundayki, u go'yoki yo'q joyda bor qiladi, ya'ni oddiygina, jo'ngina narsalarga boshqacha, birovlarinikiga o'xshamagan tarzda fikrlashga imkon beradi. Bunday tafakkur turi “hammaga o'xshab fikrlash” yoki shablonli, zerikarli fikr

yuritishdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini ham anglashga yordam beradi. Masalan, uchta so'z berilgan - "qalam", "ko'l", "ayiq". Uchasini qo'shib, yangi jumlar tuzish kerak. Har kim o'zidagi kreativlik darajasiga ko'ra turli xil jumlar tuzsa bo'ladi. Masalan, "Bola qalamni olib, ko'lda cho'milayotgan ayiq rasmini chizdi". Yoki "Terak qalamchalari ekib chiqilgan ko'l yoqasida bir ayiq bolasini cho'miltirardi". Shunga o'xshash ko'plab jumlar tuzish mumkin.

Bundan tashqari, **predikativ** deb nomlanuvchi tafakkur turi ham mavjud. Freyd bunday tafakkur turini mantiqiy tafakkurga qarshi qo'ygan edi. Chunki uning mohiyati quyidagicha: agar ikkita fikrdagi kesim bir xil bo'lsa, ongsiz ravishda shaxs uning egasini bog'lay boshlaydi. Masalan, "Aqlli odamlar yozda ko'k choy ichadilar". "Men yozda doimo ko'k choy ichaman", "Demak, men aqlli odamman".

Bunday tafakkur turining borligi ko'pincha reklama bilan shug'ullanuvchilarga o'ng keladi. Demak, yuqorida keltirgan misolimizga o'xshash jumalarni ishlatib, reklama berish, aslida odamning ongostidagi bilimlariga tayanib, taklif qilinayotgan tovarga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Masalan, "Yangi avlod Pepsini tanlaydi" degan reklama ham barcha yoshlarni shu ichimlikni iste'mol qilishga chorlaydi, chunki yoshlar o'zlarini aynan hozirgi yangi avlodga qo'shadilar. Ko'pincha millatlararo biddiyatlar yoki jinslararo ziddiyatlar ham oddiy hayotiy vaziyatlarda xulosa qilingan predikativ fikrlashga tayanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkurni shakllanganligining mavjud holati yuzasidan olib borgan tadqiqotlar natijasi o'laroq shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini yuqori darajada deb bo'lmaydi. Chunki o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashi, qobilyatini nomoyon qilishda bir qancha muammolar aniqlandi. Bular:

- o'qituvchilarning bolalarning ijodiy ishlanmalari va shaxsiy fikrlari bilan qiziqmaganligi, ularni qo'llab-quvvatlamaganligi;
- o'qituvchilarning o'qituvchi tomonidan bir xil qolipga solib qo'yilganligi;
- mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun xizmat qilmaganligi;
- kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvni oshiruvchi metodlarning qo'llanilmaganligi, umuman olganda o'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirishning ahamiyati haqida o'qituvchining yetarli bilimiga ega emasligini kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turg'unov Q «Ruscha-o'zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug'ati» Toshkent «O'qituvchi» 1975.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi, 1992. 22-23 betlar.
3. G'aybullaev N, R.Yodgorov. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. T., 2000, 104-110b.
4. Zunnunov A. prof O'zbek pedagogikasi tarixi.. - T.: O'qituvchi, 1997.- 512 b.
5. А.Абдуллаева Н.Тошболтаева //ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ//
FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference. 13 April 2023. Part 18. 27-32 pages.

6. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова //ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.
7. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАҚҚИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE13 (26-December). 472-475.
8. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова, Тошболтаев Салоҳиддин Ҳамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.
9. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna //The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences, January 10 th, 2022. 69-70 pages.
10. O.R.Parpiyeva, Ostanqulov A.D //SCHIZOPHRENIA DISEASE// Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Выпуск №6 (48) – 2019. 18-21 pages.
11. O.R Parpiyeva, Ostanqulov A.D //Thoughts that do not go away from the brain// Международный научно-практический журнал “Мировая наука”. Выпуск № 6 (27) – 2019. 9-12 стр
12. Ibrokhimjonovna T.N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 03. – С. 1-2.
13. Тошболтаева, Нодира Иброхимжонова. "Важные аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация." INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.5 (2020): 97-99 pages.
16. Ahmadjonov Nurmuhhammad //DEVELOP STUDENTS' THINKING SKILLS IN THE LEARNING PROCESS BASICS// *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. Volume 2, Issue 1, Jan, 2021. 15-21 pages.
17. Ahmadjonov Nurmuhhammad, Sobirjonova Masturabonu //8-9 YOSHDAGI BOLALARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGANISH ORQALI AQLIY OPERATSIYALARNI SHAKLLANTIRISH// 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia May 31. Vol. 25 No. 1 (2021). 182-188.
18. Ahmadjonov Nurmuhhammad Nabijon o'g'li //PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FATHER'S RELATIONSHIP IN PERSONS WITH DIFFERENT DEGREE OF DEPENDENCE// “PEDAGOGS” international research journal. Volume-24, Issue-3, Decembe. 2022. 124-127 pages.
19. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Rasuljon Raxmonali o'g'li Tilavoldiyev //O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH

MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI//

International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 660-669 pages.

20. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Dostonbek Muxtarjon o'g'li Masharipov //INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O'RGANISH// INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference 25 th March, 2023. Washington, USA: "CESS", 2023. Part 28. 192-199 pages.

21. Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Xomidov Abdullajon Adxam o'g'li //ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue-1. 2023. 217-223 pages.

22. Элеонора Мирзажонова, Абдуллажон Хомидов //КОМПЛЕКСНОСТЬ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДОШКОЛЬНИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 4 (100), часть 1. ноябрь, 2022 г. 232-237 стр.

23. Э.Мирзажонова, А.Хомидов, Г.Мамажонова //АКТУАЛЬНОСТЬ ПЕРЕВОДА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 9-SON. 20.06.2022. 211-217 betllar.

24. Murodil R. The concept of makiavellism in the scientific psychological literature and the degree of mac-scale in a person //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2021. - Т. 11. - №. 5. - С. 1249-1257.

25. Rajabov M. J., Absalamov E. U. //NLP IN ADVERTISING AND PRINCIPLES OF ITS APPLICATION// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. - 2020. - С. 355-357.

26. Rajabov M. J., Sotvoldiev J. M. //INFORMATION-PSYCHOLOGICAL EFFECTS OF ADVERTISING AND BUYER MOTIVATION// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. - 2020. - С. 62-64.

27. Rajabov M. J., Rajabova X. X. //Self-consciousness of students in social and psychological mechanisms // Theoretical & Applied Science. - 2019. - №. 12. - С. 176-179.

28. MuazzamTulkinovna Isakova //Socio-Psychological Factors Are The Effect Ofperson's Mental Health// European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 07, Issue 03, 2020. 4699-4718 pages.

29. Muazzam Isakova Tulqinovna //FAMILY AS A FACTOR IN MENTAL HEALTH// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 7, July 2020. 200-210 pages.

30. Isakova Muazzam To'liqinova //Additional Learning is as a Factor of Mental Health// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24, Issue 05, 2020. 7330-7335 pages.

31. Исакова М.Т. //ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ВЕДУЩИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ МЕЖДУ ОТНОШЕНИЕМ К ЗДОРОВЬЮ И ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ// ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. 2021, Выпуск 23. 144-149 стр.

32. M.T.Isakova //SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A PERSON'S ATTITUDE TO HIS MENTAL HEALTH// Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue 4, April, 2021. 29-36 pages.

33. M.T.Isakova //OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA// PSIXOLOGIYA ILMII AXBOROTNOMA. 2021-yil, 2-son. 127-134 betlar.

34. Isakova Muazam Tulkinova //THE RESULTS OF THE EMPIRICAL TRANSFER OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE MENTAL HEALTH OF THE INDIVIDUAL// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. JUNE, 2021-XI. ISSN 2181-9750. 4-15 pages.